

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025 dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 404 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MECHANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Joniqulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	



GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIJ TAJIRIBALARI

Ismatillaeva Sitora Sayfidin qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: sitorabonu2012@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola global miqyosda faoliyat yuritadigan onlayn bronlash tizimlarining dunyo mamlakatlaridagi ilg'or tajribalarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida 10 ta yetakchi mamlakat – Qo'shma Shtatlar, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Yaponiya, Avstraliya, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari va Braziliya bozorlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari kompleks o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni sintez qilish hamda ekonometrik modellash usullari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 2024-yilda global onlayn sayohat bozori hajmi 600 mlrd AQSh dollaridan oshgan bo'lib, onlayn bronlash tizimlari (OTA) umumiy sayohat industriyasining 70 foizidan ortiq ulushini egallagan. Booking Holdings kompaniyasi 24 mlrd dollar daromad bilan yetakchilik qilgan bo'lsa, Expedia Group 13,6 mlrd dollar, Airbnb esa 11,1 mlrd dollar daromad ko'rsatgan. Xitoyda Trip.com Group 53,3 mlrd yuan (7,35 mlrd dollar) daromad bilan mahalliy bozorning 54,7 foiz ulushini nazorat qilmoqda. Hindistonda onlayn sayohat bozori hajmi 51 mlrd dollarga yetib, mobil bronlashlar ulushi 66,67 foizni tashkil etgan. Singapur esa OTA penetratsiyasi eng yuqori (78 foiz) bo'lgan davlat sifatida ajralib turadi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi, mobil ilovalar rivoji va shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklifi bronlash tizimlarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. O'zbekiston turizm sektorini rivojlantirishda xorijiy tajribadan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: onlayn bronlash tizimlari, OTA, onlayn sayohat agentliklari, Booking Holdings, Expedia, Trip.com, raqamli transformatsiya, turizm iqtisodiyoti, mobil bronlash, sun'iy intellekt.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of international best practices in the operation of global online booking systems. The study comprehensively examines the economic performance of online travel markets in ten leading countries, including the United States, China, the United Kingdom, Germany, India, Japan, Australia, Singapore, the United Arab Emirates, and Brazil. The research methodology is based on comparative analysis, statistical data synthesis, and econometric modeling. The findings indicate that in 2024 the global online travel market exceeded USD 600 billion, with online travel agencies (OTAs) accounting for more than 70% of the global travel industry. Booking Holdings led the market with revenues of USD 24 billion, followed by Expedia Group with USD 13.6 billion and Airbnb with USD 11.1 billion. In China, Trip.com Group generated CNY 53.3 billion (USD 7.35 billion) in revenue, controlling 54.7% of the domestic market. India's online travel market reached USD 51 billion, with mobile bookings accounting for 66.67%. Singapore stands out with the highest OTA penetration rate at 78%. The study concludes that the integration of artificial intelligence technologies, the expansion of mobile applications, and the provision of personalized services are key determinants of competitiveness in online booking systems. Practical recommendations are proposed for leveraging international experience to support the development of Uzbekistan's tourism sector.

Keywords: online booking systems, OTA, online travel agencies, Booking Holdings, Expedia, Trip.com, digital transformation, tourism economics, mobile booking, artificial intelligence.

Аннотация. Данная статья посвящена всестороннему анализу передового международного опыта функционирования глобальных онлайн-систем бронирования. В рамках исследования комплексно изучены экономические показатели рынков 10 ведущих стран мира – США, Китая, Великобритании, Германии, Индии, Японии, Австралии, Сингапура, Объединённых Арабских Эмиратов и Бразилии. В качестве методологической основы использованы методы сравнительного анализа, синтеза статистических данных и эконометрического моделирования. Результаты исследования показали, что в 2024 году объём глобального онлайн-рынка путешествий превысил 600 млрд долларов США, при этом онлайн-туристические агентства (OTA) заняли более 70 % мирового туристического рынка. Компания Booking Holdings стала лидером с доходом 24 млрд долларов,



Expedia Group получила 13,6 млрд долларов, а Airbnb – 11,1 млрд долларов. В Китае Trip.com Group с доходом 53,3 млрд юаней (7,35 млрд долларов) контролирует 54,7 % внутреннего рынка. В Индии объём онлайн-рынка путешествий достиг 51 млрд долларов, а доля мобильных бронирований составила 66,67 %. Сингапур выделяется как страна с наивысшим уровнем проникновения ОТА (78 %). Сделан вывод, что интеграция технологий искусственного интеллекта, развитие мобильных приложений и персонализация сервисов являются ключевыми факторами конкурентоспособности онлайн-систем бронирования. Разработаны практические рекомендации по использованию международного опыта для развития туристического сектора Узбекистана.

Ключевые слова: онлайн-системы бронирования, ОТА, онлайн-туристические агентства, Booking Holdings, Expedia, Trip.com, цифровая трансформация, экономика туризма, мобильное бронирование, искусственный интеллект.

KIRISH

Zamonaviy turizm industriyasi global miqyosda tez sur'atlar bilan raqamli transformatsiyaga uchramoqda va bu jarayonda onlayn bronlash tizimlari muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrning ikkinchi choragida sayohatchilar xatti-harakati tubdan o'zgarib, an'anaviy turizm agentliklariga murojaat qilish o'rniga onlayn platformalar orqali mustaqil ravishda sayohatlarini rejalashtirish va bronlash usulini afzal ko'rmoqda. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, global sayohat va turizm industriyasining 70 foizdan ortiq daromadi onlayn kanallar orqali generatsiya qilinmoqda va ushbu ko'rsatkich yildan yilga barqaror o'sib bormoqda. Bunday tendensiya onlayn bronlash tizimlarining nafaqat texnologik innovatsiya sifatida, balki turizm iqtisodiyotining fundamental infratuzilmasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dolzarbligi bir qator asosiy omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, O'zbekiston turizm sektorini rivojlantirishda xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitlarga moslashtirish strategik ahamiyatga ega. Ikkinchidan, COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda global turizm industriyasining jadal tiklanishi hamda raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi yangi tadqiqot yo'nalishlarini talab qilmoqda. Uchinchidan, sun'iy intellekt, mashinali o'rganish va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili kabi zamonaviy texnologiyalarning bronlash tizimlariga integratsiyasi ushbu jarayonlarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi global miqyosda faoliyat yuritayotgan yetakchi onlayn bronlash tizimlarining ilg'or tajribalarini kompleks tahlil qilish, 10 ta yetakchi mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlarini qiyosiy o'rganish hamda O'zbekiston turizm sektorini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Onlayn bronlash tizimlari bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bournemouth universiteti professori Dimitrios Buhalis bronlash tizimlarini turizm korxonalari raqobatbardoshligini belgilovchi strategik vosita sifatida ta'riflab, "eTourism" konsepsiyasini ilmiy muomalaga kiritgan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy bronlash tizimlari nafaqat tranzaksion funksiyani bajaradi, balki mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish, talab va taklifni real vaqt rejimida muvofiqlashtirish hamda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Gavayi universiteti professori Pauline Sheldon bronlash tizimlarini turizm industriyasining "asab tizimi" metaforasi orqali tavsiflab, ushbu tizimlarning aviakompaniyalar, mehmonxonalar, avtomobil ijarasi va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'rtasidagi integratsion funksiyasini alohida ta'kidlagan.

Vena texnika universiteti professori Hannes Werthner bronlash tizimlarini ikki tomonlama – texnologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida o'rgangan. Uning konsepsiyasiga ko'ra, bronlash tizimlari bir vaqtning o'zida texnologik innovatsiya bo'lishi bilan birga, iste'molchilar xatti-harakatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy fenomen ham hisoblanadi. Gonkong Politeknik universiteti professori Rob Law Osiyo-Tinch okeani mintaqasida bronlash tizimlarining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilib, mobil texnologiyalar va mahalliy to'lov tizimlarining integratsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan. Janubiy Kaliforniya universiteti professori Ulrike Gretzel "aqlli turizm" (smart tourism) konsepsiyasini ishlab chiqqan bo'lib, bronlash tizimlarini katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt va narsalar interneti (IoT) texnologiyalari bilan integratsiyalashgan murakkab ekotizim sifatida tavsiflaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kelajakda bronlash tizimlari nafaqat tranzaksion funksiyani bajaradi, balki sayohatchilarning barcha bosqichlarida – ilhomlanish jarayonidan boshlab, sayohatdan keyingi tajriba almashishgacha – ularni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlovchi platformaga aylanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni sintez qilish va ekonometrik modelashtirish metodlari qo'llanilgan. Qiyosiy tahlil metodi 10 ta yetakchi mamlakat – Qo'shma Shtatlar, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Yaponiya, Avstraliya, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari va Braziliya bozorlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish imkonini bergan. Statistik ma'lumotlarni sintez qilish metodi orqali turli manbalardan olingan ma'lumotlar – Statista, Mordor Intelligence, Global Market Insights, Phocuswright hamda kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari – birlashtirilib, yaxlit tahlil amalga oshirilgan.

Ma'lumotlar bazasi 2024-yil statistik ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan bo'lib, unda bozor hajmi, o'sish sur'atlari (CAGR), OTA penetratsiyasi, mobil bronlashlar ulushi hamda yetakchi kompaniyalar daromadlari tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida global miqyosda faoliyat yurituvchi yetakchi bronlash tizimlari – Booking Holdings, Expedia Group, Airbnb, Trip.com Group, MakeMyTrip va boshqalar tanlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilda global onlayn sayohat bozori hajmi 600 mlrd AQSh dollaridan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich COVID-19 pandemiyasidan oldingi davrga nisbatan sezilarli o'sishni namoyish etmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, onlayn bronlash tizimlari (OTA) umumiy sayohat industriyasining 70 foizidan ortiq ulushini egallagan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2029-yilga borib 73 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

Global bozorda Booking Holdings kompaniyasi mutlaq yetakchilik mavqeini egallab, 2024-yilda 24 mlrd dollar daromad hamda 1,15 mlrd dan ortiq mehmonxona tunlari, avtomobil ijarasi kunlari va aviachiptalar bronlashlarini qayd etgan. Booking.com veb-sayti 2024-yil noyabr oyida 492 mln tashrif bilan dunyodagi eng ko'p tashrif buyurilgan sayohat va turizm veb-sayti maqomini saqlab qolgan.

Expedia Group ikkinchi o'rinni egallab, 13,6 mlrd dollar yillik daromad, 110 mlrd dollar brutto bronlash hajmi va 46 mln faol foydalanuvchi ko'rsatkichlarini namoyish etgan. Airbnb esa uchinchi o'rinni egallab, 11,1 mlrd dollar daromad, 491 mln bronlash va 81,1 mlrd dollar brutto bronlash qiymatini qayd etgan.


1-jadval. Dunyo yetakchi mamlakatlarning onlayn sayohat bozori ko'rsatkichlari (2024-yil ma'lumotlari asosida)

Mamlakat	Bozor hajmi (mlrd \$)	CAGR (%)	OTA ulushi (%)	Mobil bronlash (%)	Yetakchi platforma
AQSh	195,8	8,2	72	57	Expedia, Booking.com
Xitoy	105,1	15,3	68	72	Trip.com, Meituan
Buyuk Britaniya	52,4	7,8	74	54	Booking.com, Lastminute
Germaniya	48,7	7,5	71	52	Booking.com, Check24
Hindiston	51,0	9,3	84	67	MakeMyTrip, EaseMyTrip
Yaponiya	28,5	6,8	58	48	Rakuten Travel, Jalan
Avstraliya	22,3	8,5	75	58	Webjet, Flight Centre
Singapur	7,0	9,1	78	65	Agoda, Klook
BAA	12,8	11,2	69	62	Booking.com, Musafir
Braziliya	18,6	10,8	62	55	Decolar, CVC

Manba: Statista, Mordor Intelligence, Global Market Insights ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan



2024-yilda 10 ta yetakchi mamlakatlarda onlayn sayohat bozori hajmi



1-rasm. 2024-yilda 10 ta yetakchi mamlakatlarda onlayn sayohat bozori hajmi (mlrd AQSh dollari)

Qo'shma Shtatlar global onlayn sayohat bozorining eng yirik segmenti bo'lib, 2024-yilda bozor hajmi 195,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Shimoliy Amerika mintaqasi umumiy global bozorning 35 foiz ulushini egallagan bo'lib, bu ko'rsatkich yuqori internet penetratsiyasi (92 foiz), smartfonlardan keng foydalanish hamda rivojlangan moliyaviy infratuzilma bilan izohlanadi. Amerikalik sayohatchilarning 72 foizi onlayn bronlash usulini afzal ko'rmoqda, faqat 12 foizi an'anaviy turizm agentliklaridan foydalanmoqda. Millenniallar (32-43 yosh) bronlashlarning 45,11 foizini amalga oshirgan bo'lsa, Z avlodi eng tez o'sib borayotgan segment hisoblanadi (yillik 11,66 foiz o'sish). Mobil bronlashlar ulushi 57 foizni tashkil etib, yillik 12,2 foiz sur'atda o'smoqda. Kredit va debit kartalar to'lovlarning 67,1 foizini tashkil etgan bo'lsa-da, "hozir oling, keyinroq to'lang" (BNPL) mexanizmi eng tez o'sayotgan to'lov usuli (yillik 18,25 foiz o'sish) hisoblanadi.

Xitoy onlayn sayohat bozori 2024-yilda 105,1 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2030-yilga borib 213,74 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda (yillik 15,25 foiz o'sish). Trip.com Group (Ctrip) mahalliy bozorning 54,7 foiz ulushini nazorat qilib, 2024-yilda 53,3 mlrd yuan (7,35 mlrd dollar) daromad ko'rsatgan. Kompaniya 2024-yilning to'rtinchi choragida 12,7 mlrd yuan (1,75 mlrd dollar) daromad olgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 foiz o'sishni tashkil etgan. Ctrip ilovasining oylik faol foydalanuvchilari soni 69 mln kishini, Qunar – 29 mlnni, Fliggy (Alibaba) esa 9,6 mln foydalanuvchini tashkil etgan. Xitoyda turar joy bronlashlari bozorning 42,66 foizini, dam olish sayohatlari esa 75,20 foizini tashkil etgan. Sharqiy Xitoy (Shanxay, Szyansu va Chzetsyan viloyatlari) bozorning 38 foiz ulushini egallagan. Alipay va WeChat Pay raqamli hamyonlari to'lovlarni soniyalar ichida amalga oshirish imkonini bermoqda.

Buyuk Britaniya onlayn sayohat bozori 2024-yilda 52,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, Yevropa mintaqasida yetakchi pozitsiyalardan birini egallagan. OTA penetratsiyasi 74 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich Yevropadagi eng yuqorilaridan biri hisoblanadi. Booking.com Buyuk Britaniya bozorida mutlaq yetakchilik qilmoqda, Lastminute.com esa mahalliy bozorda muhim ulushga ega. Germaniya onlayn sayohat bozori 48,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, yillik 7,5 foiz o'sish sur'atini namoyish etmoqda. Booking.com Germaniya bozoridagi eng mashhur brend bo'lib, Check24 metaqidiruv platformasi ham sezilarli ulushga ega. Yevropa Komissiyasi 2024-yil mart oyida raqamli sayohat tashabbusini (Digital Travel Initiative) ishga tushirib, onlayn sayohat platformalari va mobil ilovalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan. Yevropada barqaror sayohat va eko-turizmga bo'lgan talab jadal o'sib bormoqda.

Hindiston onlayn sayohat bozori 2024-yilda 51 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2033-yilga borib 124,1 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda (yillik 9,3 foiz o'sish). OTA platformalari bozorning 84,56 foiz ulushini nazorat qilmoqda, mobil bronlashlar esa 66,67 foizni tashkil etgan. Aviachiptalar bronlashlari bozorning 37,56 foizini, turar joy bronlashlari esa 42,66 foizini tashkil etgan. UPI va raqamli hamyonlar to'lovlarning 46,74 foizini amalga oshirgan. MakeMyTrip, EaseMyTrip, Yatra va Cleartrip yetakchi mahalliy platformalar hisoblanadi. Hindiston hukumati 2024-yil yanvar oyida qo'shimcha 50 ta mamlakat uchun elektron viza jarayonini soddalashtirgan bo'lib, bu xalqaro sayohat bronlashlarining 25 foizga o'sishiga olib kelgan.

Singapur OTA penetratsiyasi eng yuqori (78 foiz) bo'lgan davlat sifatida ajralib turadi. 2023-yilda mamlakat onlayn sayohat bozori hajmi 7 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Singapur Turizm Kengashi 2024-yil may oyida raqamli marketing kampaniyasini ishga tushirib, turist tashriflarining 20 foizga o'sishiga erishgan.




2-jadval. Yetakchi global OTA kompaniyalarining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil)

Kompaniya	Daromad (mlrd dollar)	Brutto bronlash (mlrd dollar)	Bronlashlar soni (mln)	Asosiy brendlar
Booking Holdings	24,0	159,0	1 150+	Booking.com, Priceline, KAYAK, Agoda
Expedia Group	13,6	110,9	432	Expedia, Hotels.com, Vrbo, Orbitz
Airbnb	11,1	81,1	491	Airbnb, Experiences
Trip.com Group	7,35	45,0	380	Ctrip, Trip.com, Qunar, Skyscanner
MakeMyTrip	0,82	8,5	65	MakeMyTrip, Goibibo, redBus

Manba: Kompaniyalar moliyaviy hisobotlari, Statista, Business of Apps ma'lumotlari asosida

2024-yilda onlayn bronlash tizimlarining o'sish dinamikasi va OTA penetratsiyasi



2-rasm. 2024-yilda onlayn bronlash tizimlarining o'sish dinamikasi va OTA penetratsiyasi

Birlashgan Arab Amirliklari onlayn sayohat bozori 2024-yilda 12,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, yillik 11,2 foiz o'sish sur'atini namoyish etgan. OTA penetratsiyasi 69 foizni tashkil qilgan bo'lib, mobil bronlashlar ulushi 62 foizga yetgan. Dubay va Abu Dabi jahonning yetakchi turizm markazlari sifatida mintaqaviy onlayn bronlash tizimlarining rivojlanishini faol rag'batlantirmoqda. Booking.com mintaqada yetakchi pozitsiyani egallagan bo'lsa, Musafir va Cleartrip mahalliy bozorlarda faol ishtirok etmoqda.

Braziliya Lotin Amerikasining eng yirik onlayn sayohat bozori hisoblanib, 2024-yilda bozor hajmi 18,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Yillik o'sish sur'ati 10,8 foizni tashkil qilib, bu mintaqadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Decolar (Despegar) va CVC yetakchi mahalliy platformalar sifatida ajralib turadi. Braziliyada PIX onlayn to'lov tizimi sayohat xizmatlari uchun amalga oshirilgan onlayn to'lovlarning 33 foizini tashkil etmoqda. 2024-yilda Janubiy Amerikaning asosiy bozorlarida (Meksika, Braziliya, Kolumbiya, Chili va Argentina) bruto bronlashlar hajmi 70,1 mlrd dollarga yetib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 29 foiz o'sishni namoyish etgan.

3-jadval. Bronlash tizimlarida texnologik innovatsiyalar va tendensiyalar (2024-yil)

Texnologiya/Tendensiya	Joriy holat (2024)	O'sish sur'ati	Yetakchi mamlakatlar
Mobil bronlash ulushi	60-67%	12-13% yillik	Xitoy, Hindiston, Singapur
AI chatbotlardan foydalanish	48% tayyor	25% yillik	AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy
Raqamli hamyon to'lovlari	35-47%	18% yillik	Xitoy, Hindiston, Braziliya
Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar	80% kutish	20% konversiya	AQSh, Yevropa, Yaponiya
Barqaror sayohat talabi	70% afzallik	15% yillik	Germaniya, Skandinaviya, Kanada
BNPL (keyinroq to'lash)	15-20%	18,25% yillik	AQSh, Avstraliya, Yevropa

Manba: Phocuswright, Skift Research, Simon-Kucher ma'lumotlari asosida



Tadqiqot natijalari global bronlash tizimlarining rivojlanishida bir qator muhim tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi. Birinchidan, mobil texnologiyalarning ustuvorligi tobora kuchayib bormoqda. 2024-yilda barcha bronlashlarning 60 foizdan ortig'i mobil qurilmalar orqali amalga oshirilgan bo'lib, bu tendensiya ayniqsa Xitoy (72 foiz), Hindiston (67 foiz) va Singapur (65 foiz) kabi mamlakatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mobil ilovalar nafaqat bronlash funksiyasini bajaradi, balki sayohat davomida real vaqt rejimida ma'lumot taqdim etish, navigatsiya hamda mahalliy xizmatlarni tavsiya qilish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Ikkinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari bronlash tizimlarining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Sayohatchilarning 48 foizi AI chatbotlaridan foydalanishga tayyor ekanini bildirgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich yiliga o'rtacha 25 foizga o'sib bormoqda. Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar konversiya ko'rsatkichlarini o'rtacha 20 foizga oshirishi aniqlangan.

Uchinchidan, to'lov tizimlarining diversifikatsiyasi kuchaymoqda. Raqamli hamyonlar (Alipay, WeChat Pay, UPI, PIX) global miqyosda to'lovlarning 35-47 foizini tashkil etmoqda, "hozir oling, keyinroq to'lang" (BNPL) modeli esa eng tez o'sayotgan to'lov usuli hisoblanadi. To'rtinchidan, barqaror va eko-turizmga bo'lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Sayohatchilarning 70 foizi barqaror sayohat variantlarini afzal ko'rmoqda, 79 foizi esa ekologik toza turar joylarni tanlashga moyillik bildirgan. Booking.com 2024-yilda 3 mln dan ortiq turar joy uchun uglerod izi monitoringi funksiyasini ishga tushirgan.

Beshinchidan, mintaqaviy xususiyatlarning ahamiyati ortib bormoqda. Xitoyda mahalliy platformalar (Ctrip, Meituan) ustunlik qilsa, Hindistonda OTA penetratsiyasi eng yuqori darajaga (84 foiz) yetgan, Yaponiyada esa an'anaviy turizm agentliklari hanuz muhim ulushni saqlab qolmoqda (OTA ulushi 58 foiz).

Tadqiqotning cheklovlari quyidagilardan iborat: ma'lumotlarning asosan ingliz tilidagi manbalarga tayanganligi, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha statistik ma'lumotlarning cheklanganligi hamda prognoz ko'rsatkichlaridagi noaniqlik darajasi. Shunga qaramay, olingan natijalar asosida O'zbekiston turizm sektori uchun qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, milliy bronlash platformasini yaratish yoki mavjud platformalarni rivojlantirish zarur bo'lib, bunda Trip.com va MakeMyTrip tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mobil-birinchi (mobile-first) strategiyasini joriy etish, milliy to'lov tizimlari (Click, Payme) bilan integratsiyani kuchaytirish, sun'iy intellekt va chatbot texnologiyalarini tatbiq etish hamda barqaror va eko-turizm segmentlarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Yaponiya onlayn sayohat bozori o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, 2024-yilda bozor hajmi 28,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Biroq OTA penetratsiyasi 58 foiz darajasida qolib, bu ko'rsatkich yapon iste'molchilarining an'anaviy xizmat ko'rsatish usullariga bo'lgan sodiqligini aks ettiradi. Rakuten Travel va Jalan yetakchi mahalliy platformalar hisoblanadi, xalqaro platformalar esa bozorning nisbatan kichik qismini egallagan. Yapon sayohatchilari chegaralarning qayta ochilishi (75 foiz) va xalqaro mehmonlarni xavfsiz qabul qilish (82 foiz) masalalarida ehtiyotkorlikni saqlab qolmoqda.

Avstraliya onlayn sayohat bozori 2024-yilda 22,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, OTA penetratsiyasi 75 foizga yetgan. Webjet va Flight Centre yetakchi mahalliy platformalar hisoblanadi. Avstraliya sayohatchilari asosan dam olish (leisure) segmentida faol bo'lib, uzoq masofali sayohatlarga yuqori moyillik namoyon qilmoqda. Mobil bronlashlar ulushi 58 foizni tashkil etib, yillik 8,5 foiz sur'atda o'smoqda.

Global bronlash tizimlari raqamli transformatsiyaning yangi bosqichiga kirib bormoqda. Sun'iy intellekt, mashinali o'rganish va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili texnologiyalari tobora keng qo'llanilmoqda. 2024-yilda turizm sohasidagi rahbarlarning 97,8 foizi sun'iy intellekt ta'siri yaqin 1-5 yil ichida sezilarli bo'lishiga ishonch bildirgan. Expedia Group 2024-yil may oyida AI asosidagi sayohat rejalashtirish vositasini ishga tushirgan bo'lib, ushbu platforma shaxsiylashtirilgan tavsiyalar va dinamik marshrutlar yaratish imkonini bermoqda. Booking.com barqaror sayohat yo'nalishida faoliyat yuritib, 3 mln dan ortiq turar joy uchun uglerod izi monitoringini joriy etgan. Foydalanuvchilarning 58 foizi ekologik mas'uliyatli bronlash variantlarini afzal ko'rmoqda.

Qisqa muddatli ijara (short-term rentals) segmenti global bronlash tizimlarining muhim tarkibiy qismiga aylangan. 2024-yilda Airbnb, Booking.com va Expedia/Vrbo platformalari global qisqa muddatli ijara bozorining 71 foiz ulushini egallagan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yildagi 53 foizdan sezilarli darajada oshgan. Airbnb bozor ulushini 28 foizdan 44 foizga yetkazgan, Booking.com 14 foizdan 18 foizga oshgan, Vrbo esa aksincha, 11 foizdan 9 foizga pasaygan. Global qisqa muddatli ijara daromadi 2024-yilda 183 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston turizm sektorini rivojlantirishda xorijiy ilg'or tajribalarni joriy etish muhim strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, milliy OTA platformasini yaratish yoki UzAirways va Uzbekistan Travel kabi mavjud platformalarni kengaytirish, mobil ilovalarni rivojlantirish, milliy to'lov tizimlari bilan to'liq integratsiyani ta'minlash, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda barqaror va eko-turizm yo'nalishlarini rivojlantirish O'zbekistonning global turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, global onlayn bronlash tizimlari 2024-yilda sayohat industriyasining asosiy infratuzilmasi sifatida o'z mavqeini yanada mustahkamlagan. Bozor hajmi 600 mlrd AQSh dollaridan oshib, onlayn kanallar umumiy sayohat daromadlarining 70 foizidan ortig'ini generatsiya qilmoqda. O'n ta yetakchi mamlakat bo'yicha o'tkazilgan tahlil quyidagi asosiy xulosalarni beradi: AQSh eng yirik bozor (195,8 mlrd dollar) sifatida texnologik innovatsiyalarda yetakchilik qilmoqda; Xitoy eng tez o'sish sur'atiga (15,3 foiz CAGR) ega bo'lib, mahalliy platformalarning dominantligi bilan ajralib turadi; Hindiston OTA penetratsiyasi (84 foiz) va mobil bronlashlar ulushi (67 foiz) bo'yicha global standartlarni belgilamoqda; Singapur esa eng yuqori OTA penetratsiyasiga (78 foiz) ega davlat sifatida mintaqaviy uyum (hub) modelini namoyish etmoqda. Yetakchi kompaniyalar qatorida Booking Holdings (24 mlrd dollar daromad), Expedia Group (13,6 mlrd dollar) va Airbnb (11,1 mlrd dollar) global bozorda asosiy ulushni egallagan. Sun'iy intellekt integratsiyasi, mobil texnologiyalarning rivojlanishi, shaxsiylashtirilgan xizmatlar hamda barqaror turizmga yo'naltirilgan yondashuvlar bronlash tizimlarining kelajak rivojini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. O'zbekiston turizm sektorini rivojlantirishda ushbu ilg'or tajribalarni milliy kontekstga moslashtirib joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Statista. (2024). Online travel market size worldwide, 2017-2030. <https://www.statista.com>
2. Mordor Intelligence. (2024). China online travel market size & share report, 2024-2030.
3. Global Market Insights. (2024). Online travel market size & share: Statistics report, 2024-2032.
4. Phocuswright. (2024). Global online travel overview report.
5. Booking Holdings. (2024). Annual report 2024. <https://ir.bookingholdings.com>
6. Expedia Group. (2025). Fourth quarter and full year 2024 results.
7. Airbnb. (2024). Annual report 2024. <https://investors.airbnb.com>
8. Trip.com Group. (2025, February). Q4 2024 earnings press release.
9. IMARC Group. (2024). India online travel market report, 2024-2033.
10. Buhalis D. (2003). eTourism: Information technology for strategic tourism management. Pearson Education.
11. Gretzel U., Werthner H., Koo C., & Lamsfus C. (2015). Conceptual foundations for understanding smart tourism ecosystems. Computers in Human Behavior, 50, 558-563.
12. Skift Research. (2025). Short-term rentals: Market share analysis 2024.
13. Business of Apps. (2025). Travel app revenue and usage statistics 2025.
14. Simon-Kucher. (2024). Sustainable travel report 2024.
15. European Travel Commission. (2024). European tourism trends & prospects report 2024.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100